

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo‘lyozma huquqida*  
**UDK: 338.487(575.1)**

**BAXROMOV AKMAL ABDUVAHID O‘G‘LI**

**O‘ZBEKISTONDA TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTINI  
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun  
tayyorlangan**

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: i.f.f.d., professor  
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich**

**Toshkent – 2026**

## MUNDARIJA

|   |            |
|---|------------|
| KIRISH .....  | 3          |
| <b>I TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTINI</b>  |            |
| <b>BOB. RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATI .....</b>   | <b>14</b>  |
| 1.1-§. Turistik xizmatlar eksportining nazariy asoslari .....   | 14         |
| 1.2-§. Turistik xizmatlar eksportini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....  | 26         |
| 1.3-§. Turistik xizmatlar eksportini oshirishda xorij tajribasi .....   | 38         |
| I bob bo'yicha .....  | 53         |
| <b>II O'ZBEKISTONDA TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTI</b>   |            |
| <b>BOB. HOLATINING TAHLILI .....</b>  | <b>55</b>  |
| 2.1-§. O'zbekiston turistik xizmatlar eksportining rivojlanish holati .....   | 55         |
| 2.2-§. O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi turizm eksportining rivojlanish holati.....                       | 67         |
| 2.3-§. O'zbekistonda tranzit oqim asosida turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish imkoniyatlarining tahlili ..... | 81         |
| II bob bo'yicha .....   | 101        |
| <b>III O'ZBEKISTONDA TURISTIK XIZMATLAR EKSPORTINI</b>  |            |
| <b>BOB. OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....</b>  | <b>103</b> |
| 3.1-§. O'zbekistonda turistik xizmatlar eksportini rivojlantirishda xorij tajribasini qo'llash imkoniyatlari .....    | 103        |
| 3.2-§. Turistik xizmatlar eksportini oshirishning tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlari.....       | 115        |
| 3.3-§. O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirish istiqbollari.....  | 129        |
| III bob bo'yicha xulosa.....  | 144        |
| <b>XULOSA .....</b>   | <b>146</b> |
| <b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>   | <b>148</b> |
| <b>ILOVALAR.....</b>  | <b>157</b> |

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda turizm global iqtisodiy taraqqiyotning asosiy strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib, uning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional ahamiyati tobora ortib bormoqda. BMT Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda xalqaro turizm hajmi pandemiyadan oldingi darajani ortda qoldirib, tarixiy eng yuqori natijaga erishdi: xalqaro sayohatlar soni 1,4 milliarddan oshdi, turizm daromadlari esa 1,6 trillion AQSh dollariga yetib, jahon eksportining 7 foizini va xizmatlar eksportining chorak qismini tashkil etdi<sup>1</sup>. Shu bilan birga, turizmning global yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi 3,5 trillion dollarni yoki 3,4 foizni tashkil etdi<sup>2</sup>. Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun turistik xizmatlar eksporti valyuta tushumlarini barqaror oshiruvchi, yangi bandlik imkoniyatlarini yaratadigan hamda infratuzilma rivojlanishini jadallashtiruvchi muhim drayver sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari 2024-yilda rekord daromadlarga erishgan bo‘lsa, Yevropa o‘zining global turizm bozoridagi yetakchi mavqeyini saqlab qolmoqda<sup>3</sup>. Zamonaviy raqamli texnologiyalar, onlayn bronlash tizimlari va mobil ilovalarning keng joriy etilishi esa turistik xizmatlar eksporti raqobatbardoshligini kuchaytirib, uni jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishiga aylantirmoqda. Shu sababli turistik xizmatlar eksportining jadal rivojlanishi nafaqat global miqyosda, balki O‘zbekiston uchun ham iqtisodiy diversifikatsiya, tashqi savdo balansini muvozanatlash va milliy turizm brendini mustahkamlashda alohida strategik ahamiyat kasb etadi.

Jahonda turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish ko‘plab mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etayotgan yo‘nalishlardan biridir. Xorijiy mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar va amaliy tajribalar ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha turli yondashuv va tashabbuslarni shakllantirib, xalqaro miqyosda barqaror iqtisodiy o‘sish va xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni

---

<sup>1</sup> UNTourism (2025). World Tourism Barometer, January 2025. – Madrid: United Nations World Tourism Organization.

<sup>2</sup> WTTC (2024). Travel & Tourism Economic Impact 2024 – Global Trends. – London: World Travel & Tourism Council.

<sup>3</sup> UNTourism (2024). International Tourism Highlights 2024 Edition. – Madrid.

ta'minlashga qaratilgan. Bu izlanishlar turizm xizmatlari eksportining uzoq muddatli istiqbolini belgilashda muhim o'rin tutmoqda. Xususan, vizasiz rejimlarni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, xalqaro marketing strategiyalarini kuchaytirish, raqamli texnologiyalar va mobil platformalardan foydalanish, milliy brendlarni xalqaro bozorda samarali targ'ib etish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish kabi yo'nalishlar zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Shu bois, turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganish nafaqat amaliy jihatdan, balki ilmiy nuqtai nazardan ham bugungi global sharoitda g'oyat dolzarbdir.

O'zbekiston ham turizm sohasida yuqori salohiyatga ega davlatlardan biri bo'lib, uning madaniy va tabiiy resurslari xorijiy turistlar uchun jozibador yo'nalishlarni shakllantirish imkonini beradi. Mamlakatda 8,8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning 209 tasi YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan<sup>4</sup>. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, qulay vizaviy rejimlar, transport infratuzilmasining modernizatsiyasi va xizmatlar sifati oshirilayotgani eksport hajmining o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, tashqi savdo balansini muvozanatlash va milliy valyuta tushumlarini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. 2024-yilda mamlakatimiz turizm eksporti hajmi 3,5 milliard AQSh dollariga yetib, xorijiy sayyohlar soni ilk bor 10 milliondan oshgani, shuningdek, sohada 6,5 milliard dollarlik investitsiya jalb qilinib, 130 mingta yangi mehmon o'рни yaratilgani<sup>5</sup> turizm xizmatlari eksporti imkoniyatlarining qanchalik keng ekanini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, yo'llar, transport, ko'ngilochar dasturlar va xizmat sifati kabi muammolar mavjud bo'lib, bu sohada zamonaviy yechimlar ishlab chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi – e-viza, mobil ilovalar, onlayn bronlash va to'lov tizimlari, shuningdek, avtomatlashtirilgan

---

<sup>4</sup> UNESCO. (2024). World Heritage List: Uzbekistan. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Retrieved from <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz>

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (2025). *Turizm sohasi bo'yicha statistik ma'lumotlar*. Toshkent.